

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI**  
**O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

# **O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 80 yilligiga  
bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari**

**2023-yil 18-oktyabr**

**Toshkent-2023**

Ushbu to‘plamda O‘zbek tili, adabiyoti, folklori institutida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 80 yilligi munosabati bilan 2023-yil 18-oktyabrda o‘tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyaga taqdim etilgan va o‘zbek tilshunosligining til tarixi va dialektologiya, hozirgi o‘zbek tilshunosligi, antropotsenrik tilshunoslik, terminologiya va leksikografiya sohalariga oid maqolalar jamlangan. To‘plam filologiya yo‘nalishida tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilar, o‘zbek tili mutaxassislari, o‘zbek filologiyasi yo‘nalishidagi talabalar uchun mo‘ljallangan.

**Mas’ul muharrir:**

**Nizomiddin Mahmudov**, filologiya fanlari doktori, professor

**Tahrir hay’ati:**

**Feruza Musayeva**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Nilufar Axmedova**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Muxlisa Sobirova**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Akmal Saidno‘monov**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Feruza Karimova**, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**To‘plab nashga tayyorlovchilar:**

Feruza Musayeva, Aziza Axmedova

*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbek tilini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.*

Mazkur to‘plam O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy kengashining 2023-yil 6-noyabrdagi yig‘ilishi qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

## LINGVOKOGNITIV YONDASHUVNING ASOSIY JIHATLARI

*Shamsiyeva Manzura, Toshkent davlat o'zbek tili,  
adabiyoti universiteti O'zbek tilshunosligi  
kafedrasi katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Kognitiv tilshunoslik psixolingvistikaning nazariy postulatlarini shakllangandan so'ng yuzaga kela boshladi. Aynan psixolingvistlar noverbal tafakkur mavjudligini, insonlar ongida bilimlar kvanti – konseptlardan tashkil topgan, doim o'zgarish va yangilanishda bo'lgan konseptosfera mavjudligini asoslagan. Ma'lum bo'ldiki, til belgilari insonlar tomonidan muhim ma'lumotlarni almashish, ya'ni eng ko'p tarqalgan va kommunikativ muhim konseptlar uchun yaratiladi. Maqolada ushbu masalalar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** konsept, konseptosfera, kognitiv, kognitiv tilshunoslik, semantik-kognitiv tahlil.

Antropolingvistika, xususan, kognitiv tilshunoslik til inson tomonidan odamlar bilan muloqot qilish uchun yaratilgan degan nuqtayi nazarni ilgari suradi, “matnlarni dekodlashda ishlatiladigan ma'lumotlar faqat tilni bilish bilan cheklanib qolmaydi, balki butun dunyo, ijtimoiy va madaniy kontekst haqidagi bilimlarni o'z ichiga oladi” degan tushunchaga asoslanadi va bu xotiradan turli xil fon ma'lumotlarini olish ko'nikmalariga ega bo'lishni nazarda tutadi. Muloqot jarayonida so'zlovchi va tinglovchi tomonidan qo'llanadigan bilimlarni har tomonlama hisobga olish yangi lingvistik paradigmaning muhim belgisi sifatida qarala boshlandi.

Til belgilari konseptual mazmun sathida shunchaki bir nuqta bo'lsa, konseptosfera ancha keng tushuncha sanaladi. Psixolingvistikaning ushbu nazariy yutuqlari kognitiv tilshunoslik metodologiyasini yaratish uchun asos bo'lgan. Ushbu metodologiya asosiy qoidasi shundan iboratki, til belgilari semantikasini o'rganish orqali insonlar konseptosferasiga kirish, tarixning turli bosqichlarida biror-bir xalq uchun nima muhim bo'lgan, muayyan xalq uchun muhim bo'lgan narsa nima uchun boshqa xalq e'tiboridan chetda qolganligini aniqlash mumkin. Ushbu metodologik qoida asosida kognitiv lingvistikaning metodlari ishlab chiqilgan va ular yordamida bugungi kunda nafaqat milliy xususiyatlarni, balki guruh tafakkuri hamda individual-mualliflik konseptosferalarining barcha tur xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Inson tafakkuri noverbal bo'lib, u universal predmetli kod yordamida amalga oshadi. Insonlar konseptlar, kodning kodlashgan

birliklari va ushbu universal predmetli kodning tarkib toptiruvchi bazasi orqali fikrlaydilar [Vigotskiy 1982: 48].

Konsept – inson ongi mansubligi, firlash faoliyatining global birligi sanaladi. Inson ongida konseptlarning tartiblashgan majmui uning konseptosferasini tashkil etadi.

Til – inson ongi, uning konseptosferasi, konseptlarning mazmun va tuzilishiga fikrlash birligi sifatida kirish usullaridan biridir. Til orqali ong konseptual tarkibining muhim qismini bilish va tushuntirish mumkin. Til birliklarining leksik va grammatik semantikasini tavsiflashda qo‘llanadigan metodlar lingvokognitiv tadqiqot metodlariga aylanadi. Kognitiv tilshunoslik tilda biror-bir konseptni ifoda etuvchi birliklar semantikasini o‘rganadi. Til birliklarining semantikasini tadqiq qilish konseptlar mazmuniga fikrlash birliklari sifatida kirish imkonini beradi.

Til birliklarining ma’no majmui tilning semantik makonini tashkil qiladi.

**Konsept** – konseptosfera birligi, mazmun – tilning semantik makon birligi.

**Mazmun** – til ongi elementi, konsept – kognitiv (umumiy).

**Konsept va mazmun** – ikkalasi ham birdek tafakkur, kognitiv tabiat hodisasi.

Mazmun kommunikatsiya maqsadida til belgilari bilan mustahkamlangan tafakkur birligi sifatida konseptning qismidir.

Psixolingvistik mazmun (“psixologik real”, ya’ni til sohibining ongida so‘z bilan bog‘liq bo‘lgan semantik belgilar; asosan eksperimental usullar bilan aniqlanadi) va leksikografik mazmun (izohli lug‘atlarda aks etgan, qisqacha shakllantirilgan) farqlanadi. Konsept ham psixolingvistik, ham leksikografik mazmunni o‘zining tarkibiy qismiga kiritadi, biroq o‘z mazmuni hajmiga ko‘ra yuqorida ko‘rsatilgan mazmunlardan ko‘ra kengdir.

Konsept so‘z yoki og‘zaki ifodaning boshqa til vositalari bilan majburiy aloqaga ega emas. Konsept verballashgan yoki til vositalari orqali verballashmagan bo‘lishi ham mumkin [Z.D.Popova, I.A.Sternin, 2007: 26].

Nutq jarayonida konseptning kommunikativ relevant qismi verballashadi. Konseptni verballashtiruvchi til birliklari semantikasini tadqiq qilish konseptning verballashuvchi qismini tavsiflashga yo‘l ochadi.

Konseptning verballashuvi yoki verballashmasligi sabablari sof kommunikativdir (konseptning kommunikativ relevantligi). Konseptning

verballashuvi yoki verballashmasligi uning ongda fikrlash birligi sifatida mavjud bo'lishiga ta'sir qilmaydi. Ongda ko'p miqdorda verballashmagan konseptlar mavjud. Individual ong konseptlarining aksariyati umuman verballashmaydi.

Konsept kommunikativ zaruriyat holatlarida turli usullar yordamida (leksik, frazeologik, sintaktik va b.), til vositalarining butun majmui, konseptni modellashtirishda qo'llanishi mumkin bo'lgan kognitiv belgilar va kognitiv tasniflovchilarni ajratish imkonini beruvchi til vositalari, tizimlashtirish va semantik tavsif usullari orqali verballashadi.

Konsept mustahkam bo'lmagan, biroq konseptning mavjudligi va uning konseptosferaga kirish uchun zarur bo'lgan muayyan tuzilmaga ega. Konseptlar makon prinsipi bo'yicha ichki tuzilmaga ega bo'lib, hissiy obraz, axborot mazmuni va talqin makonini o'z ichiga oladi. Konsept tuzilmasi til sohiblari ongining yorqinlik darajasi bilan farqlanuvchi turli kognitiv belgilar bilan shakllangan va konsept tuzilmasida makon belgisi bo'yicha tartiblanadi. Konseptlarning milliy, ijtimoiy, guruhli va individual o'ziga xos xususiyatlari kuzatiladi. Konseptlar mazmuni va tuzilmasining milliy xususiyatlari mavjud; mahalliy konseptlar, konseptning lakunarligi bo'lishi mumkin.

Semantik-kognitiv tahlil metodi lingvokognitiv tadqiqot jarayonida ma'no mazmunidan konsept mazmuniga tavsifning muhim bosqichi davomida – kognitiv talqinga o'tishni anglatadi. Kognitiv talqin – semantik-kognitiv tahlilning shunday bosqichiki, usiz tadqiqot lingvistik semantika doirasida qolib ketadi.

Muvofiq konseptlarni aniqlash va tavsiflashni ta'minlovchi semantik-kognitiv yondashuv tadqiqotchilarga olingan ma'lumotlardan foydalanishning yana ikkita imkoniyatini beradi:

*tilga qaytish:* olingan kognitiv bilimlarni til semantikasidagi hodisa va jarayonlarni tushuntirish uchun qo'llash, leksik va grammatik semantikani chuqur o'rganish; tadqiqotning bunday yo'nalishi kognitiv semasiologiyani o'zida aks ettiradi;

*ongga harakat:* konseptlarni milliy konseptosfera, milliy madaniyat birligi sifatida modellashtirish; ushbu yo'nalish lingvistik konseptologiyani o'zida aks ettiradi.

Kognitiv semasiologiyada konseptning qanday komponentlari tilning semantik makoniga tafakkur birligi sifatida kirgani (ya'ni semantika birliklari, til birliklarining semalariga aylangani), qaysi kognitiv jarayonlar muvofiq til birliklarining shakllanishi va semantikasi rivojlanishini belgilab bergani va belgilayotgani o'rganiladi. Kognitiv

terminologik apparat til hodisalari va jarayonlarini tushuntirish uchun qo'llanadi.

Kognitiv semasiologiya konsept tushunchasini, birinchidan, tadqiq etilayotgan til materialini chegaralash asbobi sifatida, shuningdek, tilning leksik-frazeologik va sintaktik tizimi ichki birliklari va ahamiyatli qismlari tuzilmalarini yoritish, ikkinchidan, til birliklari semantikasini tushuntirish va tavsiflash vositasi sifatida qo'llaydi.

Lingvistik konseptologiya konsept tushunchasini milliy kognitiv ong, milliy konseptosferani modellashtirish va tavsiflash birliklarini belgilovchi sifatida qo'llaydi. Lingvistik konseptologiya vazifalari: tadqiq etilayotgan konseptni ifoda etuvchi til vositalari tarkibini to'liq aniqlab, lingvistik tadqiqot natijalarini kognitiv talqin metodikalarini qo'llab, o'rganilayotgan konseptning mazmunini milliy o'ziga xosligida global mental birlik sifatida konsept mazmunini modellashtirish va konseptosferada o'rni belgilashdan iborat.

Lingvokognitiv tadqiqotlarda semantik-kognitiv yondashuv shundan dalolat beradiki, tadqiqotning "tildan konseptga" tomon bo'lgan yo'li eng ishonchli bo'lib, til vositalari tahlili konseptlarning belgilarini sodda va samarali usulda aniqlash imkonini beradi.

Kognitiv tilshunoslik va semiotikaning aloqasiga e'tibor qaratamiz. U biologiya, psixologiya, etnografiya, sotsiologiya, madaniyat tarixi, san'atshunoslik, adabiyotshunoslikda o'z predmetiga ega, biroq tilshunoslikda alohida ahamiyatga ega.

Belgili til tizimlari ishlab chiqilgan, aniq tuzilmaga ega. Tilshunoslik tartiblashtirilgan terminologik apparatiga ham ega. Biosemiotiklar, etnosemiotiklar, san'at semiotiklari, madaniyatshunoslar va semiotikaning boshqa bo'limlaridagi mutaxassislar unga murojaat qiladi.

Semiotika va tilshunoslik predmetlari kesishuvi sohasi belgilar tizimini o'rganish hisoblanadi.

Mashhur semiotik Gotleb Frege belgi vaziyatida uch tarkibiy qismni ajratadi: belgi tanasi, belgi ma'nosi va predmet, belgi ma'nosida aks etgan obraz [Frege, 1997: 360].

Tilshunoslikda Ferdinand Sossyur semiotik jihatni olib kirgan, birinchi bo'lib til belgisi va til belgilari tizimining kengaytirilgan nazariyasini taklif qilgan [Sossyur, 2017: 31]. G.Frege ko'rsatib o'tgan belgi vaziyatining uch takribiy qismidan tashqari Sossyur belgi vaziyatiga til birligi uchun ma'noni ham kiritdi, ya'ni belgining shunday tizimdagi boshqa belgilarga munosabati

Keyinchalik Karl Byuler tilshunos sifatida belgi vaziyatiga til belgisi uchun yo‘llovchi va qabul qiluvchi maqomlarini kiritish zarur deb hisoblaydi [Byuler, 1993: 109].

Mashhur semiotik va tilshunoslarning ishlanmalariga tayangan holda Z. Popova belgi vaziyatini quyidagicha model asosida tasvirlaydi. Ushbu model faylasuflar, psixologlar, neyrofiziologlar, tilshunos va boshqa olimlar tomonidan qo‘llanadigan semiotikaga doir masalalar bo‘yicha turli terminlarning o‘zaro munosabatini aniqlash imkonini beradi. Semiotik terminologiya bo‘yicha adabiyotlar belgi vaziyatiga doir quyidagi terminlarni ham taqdim etadi:


**Akustik belgi** – belgining tanasi, belgi tashuvchisi, vositachi, ko‘rsatkich.

**Akustik belgi obrazi** – leksema, designator.

**Akustik belgi anglatuvchisi** – so‘z ma‘nosi, designat, semema.

**Predmet va vaziyatlar obrazi** – mazmun, konsept, designat.

Tildan tashqari olam predmetlari va vaziyatlari – **designatlar, referentlar.**



**Akustik belgi** – akustema.

**Akustik belgi obrazlari** – leksemalar, fonemalar, morfemalar.

**Akustik belgi anglatuvchilari** – semema (bitta anglatuvchi), semantema (bir leksema anglatuvchilarining majmui), sintaksema (leksemalarning me'yoriy izchilligini anglatuvchi).

**Predmet va vaziyatlar obrazlari** – denotatlar (verballashgan obrazlar), ma'nolar (verballashmagan obrazlar), konseptlar (inson konseptosferasini shakllantiruvchi predmet va vaziyatlarning verballashgan va verballashmagan obrazlari majmui).

**Referentlar** – til belgilari yordamida ma'no kasb etgan tashqi olam predmetlari va vaziyatlari.

Yuqorida taklif etilgan model lingvistik o'rganishning asosiy jihatlarini yetarlicha aniqlik bilan ko'rsatish imkonini beradi. Ko'rinib turibdiki, leksema va sememalar til tizimini shakllantiradi, semema va denotatlar tilning semantik makonini shakllantiradi, denotat va mazmun esa inson konseptosferasini tashkil qiladi.

Ko'rib chiqilgan nuqtayi nazarlar bo'yicha kognitiv tilshunoslik predmeti quyidagicha aniqlanadi: kognitiv tilshunoslik tilda, konseptlar doirasida o'z ifodasini topgan sememalar, ularning birikuvi, namunaviy propozitsiyalar munosabatini o'rganadi. Kognitiv tilshunoslik mazmunlar doirasiga matn tubidan joy olgan va verbal ifodaga ega bo'lmagan, implitsit mazmunga ega matn tilshunosligi orqali kiradi. Til semantikasini tahlil qilish orqali konseptlar doirasiga kirish – kognitiv tilshunoslikning asosiy g'oyasidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Выготский Л.С. Мышление и речь // Выготский Л.С. Собр.соч. в 6-ти томах. – М., 1982. – Т. 2.
2. Фреге Г. Смысл и денотат// Семиотика и информатика. – Вып. 35. – М., 1997. – С. 358-379.
3. Фердинанд де Соссюр. Умумий тилшунослик курси. Рус тилидан М.Шамсиева таржимаси. – Тошкент, 2017. – 67 б.
4. Бюлер К. Теория языка. – М., 1993.
5. Попова З.Д., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика. Монография. – М.: “Восток-Запад”, 2007. – С. 226.



## MUNDARIJA

|                                                                                                                                               |     |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Nizomiddin Mahmudov.</b> Suyuk tilimizning buyuk rutbasiga mas'ullik .....                                                                 | 3   |
| <b>Durdona Xudoyberganova.</b> Yangi ilmiy paradigmalarning o'zbek tilshunosligi terminologiyasi taraqqiyotidagi o'rni.....                   | 9   |
| <b>Yorqinjon Odilov.</b> Til ma'naviyati va lisoniy immunitet .....                                                                           | 14  |
| <b>Durdona Lutfullayeva.</b> Hissiy assotsiatsiya va uning tilda voqelanishi .....                                                            | 19  |
| <b>Abdulhay Sobirov, Zamira Djurabayeva.</b> Ona tili taqdiri ustida qayg'urish – barchamizning burchimiz .....                               | 25  |
| <b>Ma'rufjon Yuldashev, Axmedova Aziza.</b> Takror – badiiy tasvir vositasi .....                                                             | 33  |
| <b>Dilnoza Jamoliddinova.</b> Termin va kasb-hunar leksikasining o'xshash va farqli jihatlari .....                                           | 41  |
| <b>Abduvahob Madvaliyev, Akmalxo'ja Saidno'monov.</b> Xalqaro terminelementli so'z va terminlarning izohli lug'atlarda berilishiga doir ..... | 48  |
| <b>Berdaq Yusuf.</b> Turkologiyada qoraqalpoq tili tadqiqi.....                                                                               | 55  |
| <b>Feruza Musayeva.</b> “Bolalar uchun iboralarning rasmiy izohli lug'ati”ni tuzish tamoyillari .....                                         | 59  |
| <b>Shoxida Siddiqova.</b> Badiiy matnda o'ziniki bo'lmagan ko'chirma gaplarning obraz va xarakter yaratish vazifasi.....                      | 65  |
| <b>Shukurjon Norbayeva.</b> Tilshunoslikda onomasiologik tushunchalar tavsifi.....                                                            | 71  |
| <b>Nilufar Axmedova.</b> Neyrolingvistika: moziy va bugun .....                                                                               | 81  |
| <b>Feruzaxon Karimova.</b> Muloqotda psixologik qatlam va milliylik ....                                                                      | 85  |
| <b>Muxlisa Sobirova.</b> o'zbek ismlarining sotsiolingvistik tahlili.....                                                                     | 91  |
| <b>Shamsiyeva Manzura.</b> Lingvokognitiv yondashuvning asosiy jihatlari .....                                                                | 96  |
| <b>Zulfiya Ma'rufova.</b> Estetik baho ifodasida fitomorfik leksemalarning roli .....                                                         | 102 |
| <b>Muqimova Zohida.</b> Lingvomadaniy kod va uning turlari.....                                                                               | 109 |
| <b>Abdumannon Hasanov.</b> Lakuna til va madaniyatning mushtarak muammosi sifatida .....                                                      | 115 |
| <b>Muxlisaxon Saydaliyeva.</b> Pretsedent birlikli frazeologizmlar .....                                                                      | 123 |
| <b>Mirzohid Tursunov.</b> Nutqiy muloqotning sotsiolingvistik xususiyatlari .....                                                             | 128 |

# **O‘ZBEK TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI**

**O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 80 yilligiga  
bag‘ishlangan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari**

**2023-yil 18-oktyabr**

Adadi 50 nusxa. Hajmi 12,2 b/t. Bichimi 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
«Times New Roman» garniturasida. ofset usulida bosildi.  
OOO «BOOKMANY PRINT» bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent shahri, Uchtepa tumani, 22 mavze, 17-b.

E-mail: [bookmany\\_print@mail.ru](mailto:bookmany_print@mail.ru)

 t.me/ Bookmanyprint  +998 99 180 97 10